

---

## E'TIBORDAN KO'NGILLAR SHOD BO'LMOQDA

Muborak oy munosabati bilan Toshloq tumanida tashkil etilayotgan iftorlik tadbirlari hamda yo'qlovlar davomida yoshi ulug' keksalar, imkoniyati cheklangan, mehrga muhtoj kishilar holidan xabar olib, ko'ngillarga shodlik ulashilmoqda.

Bugun Toshloq tumani hokimi Abduqahhor Djurabayev muborak ramazon oyi munosabati bilan mehrga muhtoj oilalar xolidan xabar oldi.

Tuman hokimi 1-sektor hududidagi "Xonariq" MFYda istiqomat qilayotgan ijtimoiy himoyaga muhtoj, nogironligi bor To'rayevlar xonadonida bo'lib, oila a'zolari bilan iftorlik qildi.

Ushbu oilaga "Ramazon tuhfası" sifatida 10 xil turdagi kundalik turmushda zarur bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari topshirildi.

E'tibor va g'amxo'rlikdan mamnun bo'lgan xonadon egalari, tinch va osoyishta yurtimizga shukrona aytib, duoda bo'ldilar.

2023-04-03 08:31:11